

Surxondaryoda quruvchilar mehnati sharaflandi



Yurtimizda har yili avgust oyining ikkinchi yakshanbasi qurilish sohasi xodimlari kuni sifatida keng nishonlanadi. Ushbu sana munosabati bilan surxondaryolik soha xodimlari uchun bayram tadbiri tashkil etildi.

Tadbirda viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov ishtirok etib, Yangilanayotgan Surxondaryoning yangi qiyofasini barpo etish, shahar va tumanlar taraqqiyotini ta'minlash, aholimiz hayotini yanada obod va farovon etishda o'zlarining munosib xissalarini qo'shayotgan mohir quruvchi va muhandislar, usta va me'morlar, loyihachi va pudratchi tashkilotlar vakillari – ming-minglab bunyodkor qurilish sohasi xodimlarini bayram bilan muborakbod etdi.

Joriy yilning o'tgan davrida viloyatimizda jami 2 mingdan ziyod ob'ektlarda 2 trln 471 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilgani, investitsiya dasturi doirasida 35 ta maktab, 21 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari va 3 ta oliy ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruktsiya qilish, 300 o'ringa mo'ljallangan "Tibbiyot klasteri" qurilishi jadallik bilan amalga oshirilayotganligi, shuningdek, Prezidentimizning viloyatga tashrifidagi topshiriqlar bayoniga asosan 61 ta maktabda hamda bog'cha, sog'liqni saqlash ob'ektlarida ta'mirlash ishlari olib borilayotganligi ta'kidlandi.

Quruvchilarimizning mashaqqatli mehnatlari evaziga "To'palang" suv omboridan Termiz shahri va 11 ta tumanning 1 mln 700 ming aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlovchi mega loyiha amalga oshirilayotganligi, aholiga munosib turar joy binolari qurilishini ta'minlash maqsadida "Yangi O'zbekiston" massivlarida 5 090 honadondan iborat 145 ta, shuningdek, tadbirkorlik subektlari tomonidan 5 956 xonadondan iborat 101 ta ko'p qavatli uy-joylar qurilayotganligi qayd etildi.

Qurilish sohasining bir guruh vakillariga viloyat hokimligining faxriy yorliqlari va qimmatbaho sovg'alari tantanali topshirildi.

To'kin dasturxon atrofida davom etgan tadbirda estradamizning yorqin yulduzlari, Feruza Jumaniyozova, Sevinch Ismoilova va Osman Navro'zov kabi xonandalarning chiqishlari bayramga ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi.